

O'zbekiston Respublikasida qurilish


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Bajarilgan qurilish ishlarining hajmi – jami
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmining taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Bajarilgan qurilish ishlarining hajmi – jami

2026-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekistonda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 227 446,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 112,9 foizni tashkil etdi.

1-rasm. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



1-jadval. Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari, 2026-yil yanvar-iyul

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi¹	227 446,6	112,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 761,9	141,9
<i>hududlar:</i>		
Andijon	10 577,7	118,8
Buxoro	12 674,6	115,3
Jizzax	5 539,3	121,1
Qashqadaryo	11 066,4	115,3
Navoiy	9 907,9	126,5
Namangan	9 980,1	114,0
Samarqand	11 219,3	138,0
Surxondaryo	9 889,6	126,0
Sirdaryo	4 719,0	125,0
Toshkent	21 080,7	114,3
Farg'ona	13 770,4	119,5
Xorazm	10 328,9	128,5
Toshkent shahri	76 196,9	109,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekistonda qurilish ishlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi:

- umumiy qurilish ishlari hajmida bino va inshootlar qurilishining ulushi 68,3 foizni, o'sish sur'ati esa 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlari qurilishining ulushi 19,9 foizni, o'sish sur'ati esa 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 122,3 foizni tashkil etdi.
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 11,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati esa 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 141,2 foizga teng bo'ldi.

2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, 2026-yil yanvar-iyul



2-jadval. 2026-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	36 358,8	14 787,8	5 720,8
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	108,9	131,3	134,9
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	74 584,1	30 382,0	21 256,5
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	106,1	118,4	142,9
Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	44 344,8	11,8	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	106,3	4,8m	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmining taqsimoti

3-rasm. Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, 2026-yil yanvar-iyul




2026-yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy narxlarda 56 867,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ularning umumiy hajmdagi ulushi 25,0 %ga, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 116,3 %ga teng bo'ldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmdagi ulushi 55,5 %ni tashkil etdi. Ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmi joriy narxlarda 126 222,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 %ga yetdi.

Jami qurilish ishlari hajmining 19,5%i aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hissasiga to'g'ri keldi. Ularning hajmi 44 356,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 106,3 %ga teng bo'ldi.

4-rasm. Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari, 2026-yil yanvar-iyul




3-jadval. Korxona turlari va hududlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi, 2026-yilning yanvar-iyul oylari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi²	56 867,4	126 222,6	44 356,6	116,3	113,9	106,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 586,4	3 203,8	1 971,7	5,6m	103,2	103,7
<i>hududlar:</i>						
Andijon	1 216,0	6 803,4	2 558,3	177,3	115,4	110,1
Buxoro	2 378,2	5 784,0	4 512,4	2,1m	102,5	107,2
Jizzax	795,1	3 446,1	1 298,1	142,4	119,2	115,6
Qashqadaryo	2 981,6	5 253,1	2 831,7	124,0	117,3	104,1
Navoiy	2 991,5	4 018,3	2 898,1	2,1m	112,3	103,5
Namangan	1 277,8	4 593,5	4 108,8	2,2m	105,8	106,8
Samarqand	2 452,7	7 496,3	1 270,3	2,3m	131,0	96,4
Surxondaryo	1 356,5	5 601,6	2 931,5	170,4	131,2	105,5
Sirdaryo	777,2	3 306,3	635,5	132,5	127,1	108,0
Toshkent	4 101,6	11 124,9	5 854,2	136,8	111,5	106,9
Farg'ona	2 137,3	8 101,8	3 531,3	146,8	118,0	110,2
Xorazm	1 898,2	4 293,8	4 136,9	2,9m	118,0	110,3
Toshkent shahri	17 183,4	53 195,7	5 817,8	106,6	111,0	101,7

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (17,2 trln so'm), Toshkent viloyati (4,1 trln so'm) va Navoiy viloyatida (3 trln so'm) qayd etildi.

5-rasm. Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlarining ulushi, 2026-yilning yanvar-iyul oylari



IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnik ishlar, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik axborotni shakllantirish:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistik hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari statistik hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash asosida amalga oshiriladi.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

